

**SUD HIMOYASINI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA  
ULARNING HUQUQIY TAHLILI**

**Mirjalol G‘ulomov Baxtiyor o‘g‘li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida sud himoyasini amalga oshirish jarayonidagi dolzarb muammolar va ularning huquqiy tahlili yoritilgan. Xususan, sudga murojaat qilishdagi protsessual to‘siqlar, sudyalar mustaqilligi, sud tizimining samaradorligi, raqamlashtirish darajasi hamda jinoyat protsessida himoya huquqining ta‘minlanishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *sud himoyasi, odil sudlov, protsessual to‘siqlar, sudyalar mustaqilligi, raqamlashtirish, jinoyat protsessi, aybsizlik prezumpsiyasi, access to justice*

**Abstract:** *This thesis examines current issues in the implementation of judicial protection in the Republic of Uzbekistan and provides their legal analysis. In particular, it analyzes problems related to procedural barriers in accessing courts, judicial independence, the efficiency of the judicial system, the level of digitalization, and the protection of defense rights in criminal proceedings. It also puts forward scientific and practical recommendations aimed at addressing the identified shortcomings.*

**Keywords:** *judicial protection, fair trial, procedural barriers, judicial independence, digitalization, criminal procedure, presumption of innocence, access to justice.*

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining bosh maqsadi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Sudlar to‘g‘risida"gi Qonunning 14-moddasiga muvofiq, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi. Biroq, amaliyotda sud himoyasini to‘liq va samarali amalga oshirishda muayyan huquqiy va tashkiliy muammolar saqlanib qolmoqda.

Oliy sud Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi 11-sonli qarorida tushuntirilishicha, sud orqali himoya qilish protsessual qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Asosiy muammolardan biri — murojaat shakli va mazmuniga qo‘yilgan talablarning o‘ta qat‘iyligidir. FPKning 4-moddasi va ISPKning 3-moddasida murojaat shakllari (da‘vo arizasi, ariza, shikoyat) belgilangan bo‘lsa-da, fuqarolarning huquqiy savodxonligi yetarli emasligi sababli arizalarni qabul qilishni rad etish yoki qaytarish holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas (FPK 3-modda), biroq davlat boji miqdorlarining yuqoriligi va murakkab protsessual talablar amalda "adil sudlovga erishish" (access to justice) tamoyilini cheklashi mumkin. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, sudga murojaat qilish qat‘iy protsessual shakllarda amalga oshiriladi.

20-May, 2026-yil

Biroq murojaat shakli va mazmuniga qo‘yilgan talablarning murakkabligi fuqarolar uchun sezilarli qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Ayniqsa, huquqiy savodxonlik darajasining yetarli emasligi sababli arizalarni qaytarish yoki qabul qilmaslik holatlari uchrab turadi. Sudga murojaat qilish huquqi kafolatlangan bo‘lsa- da, davlat boji stavkalari va protsessual murakkabliklar “odil sudlovga erishish” tamoyilini amalda cheklashi mumkin. Bu esa sud himoyasining real samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sudyalar mustaqilligi va odil sudlov samaradorligi

"Sudlar to‘g‘risida"gi Qonunning 63-moddasida sudyalar mustaqilligining kafolatlari belgilangan. Shunga qaramay, sud qarorlarining barqarorligi va ularni qayta ko‘rish tizimidagi murakkabliklar muammo bo‘lib qolmoqda. 2023-yil 25- dekabrda O‘RQ-887-sonli Qonun bilan kiritilgan o‘zgartirishlar (taftish instansiyasining joriy etilishi) ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Yuqori turuvchi sudlar tomonidan ishlarni yangidan ko‘rish uchun quyi sudlarga qaytarish tartibining bekor qilinishi (kassatsiya va taftish bosqichida) sud himoyasining tezkorligini oshiradi. Bu PF-4850-sonli Farmonda belgilangan "ortiqcha oraliq instansiyalarni bartaraf etish" vazifasiga to‘la mos keladi. Sudyalar mustaqilligi qonun bilan mustahkamlangan bo‘lsa-da, sud qarorlarining barqarorligi va ularni qayta ko‘rish mexanizmlaridagi murakkabliklar dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillardagi islohotlar, xususan taftish instansiyasining joriy etilishi sud tizimini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish va ochiqlik masalalari

Prezidentning PQ-4818-sonli qarori bilan sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish belgilangan. Muammo shundaki, ko‘pgina davlat idoralari bilan elektron ma’lumot almashinuvi hali ham to‘liq integratsiya qilinmagan, bu esa dalillarni to‘plash jarayonini qiyinlashtiradi. Normativ asos: FPK 5-moddasiga ko‘ra, fuqarolik ishi elektron shaklda shakllantirilishi mumkin. Biroq, chekka hududlarda internet va texnik imkoniyatlar cheklanganligi sud muhokamasining oshkoraligi (FPK 12-modda) va videokonferensaloqa tizimidan foydalanishda tengsizlikni keltirib chiqarmoqda. Sud tizimini raqamlashtirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, davlat organlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi ishlarni ko‘rib chiqishda ortiqcha vaqt sarflanishiga olib kelmoqda.

**4. Jinoyat protsessida himoya huquqini ta’minlash**

Oliy sud Plenumining 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli qarorida ta’kidlanganidek, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoya huquqini buzish hollari hali ham uchrab turadi. Aybsizlik prezumpsiyasi (Sudlar to‘g‘risida 16- modda) tamoyiliga ko‘ra, aybdorlikka oid barcha shubhalar shaxs foydasiga hal qilinishi kerak.

Muammo: Amaliyotda ayblovga og‘ish (accusatory bias) holatlari va malakali yuridik yordam olish (15-modda) imkoniyatining moddiy yetishmovchilik sababli cheklanishi sud himoyasi sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ortiqcha instansiyalarni qisqartirish va ishlarni qayta ko‘rish tartibini soddalashtirish sud jarayonining tezkorligi va samaradorligini oshiradi. Bu esa fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Hududlar kesimida texnik infratuzilmaning notengligi sud jarayonlarining oshkoraligi va masofaviy ishtirok imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa protsessual tenglik prinsipiga putur yetkazishi mumkin.

Sud himoyasini amalga oshirishda ortiqcha instansiyalarni qisqartirish va ishlarni taftish tartibida qayta ko‘rish orqali sud jarayonining tezkorligi va samaradorligi oshirilmoqda. Bu esa fuqarolarning odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq, hududlar kesimida texnik infratuzilmaning notengligi sud jarayonlarining ochiqligi va masofaviy ishtirok imkoniyatlarini cheklab, protsessual tenglik prinsipiga putur yetkazishi mumkin, chunki ayrim chekka hududlarda internet va texnik imkoniyatlar cheklangan.

Yechimlar (takliflar):

1. Sudga murojaat qilishdagi protsessual to‘siqlarni kamaytirish:

o Davlat boji stavkalarini yanada optimallashtirish (PF-4850-sonli Farmonning 35-bandi ijrosini ta‘minlash doirasida), bu fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini oshiradi.

o Arizalarni qabul qilishni rad etish yoki qaytarish holatlarini kamaytirish maqsadida fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozim.

2. Sudyalar mustaqilligi va odil sudlov samaradorligini oshirish:

o Sudlarning yuqori instansiyalar tomonidan ishlarni yangidan ko‘rish uchun quyidagi sudlarga qaytarish tartibining bekor qilinishi (kassatsiya va taftish bosqichida) sud himoyasining tezkorligini oshiradi. Bu PF- 4850-sonli Farmonda belgilangan "ortiqcha oraliq instansiyalarni bartaraf etish" vazifasiga to‘liq mos keladi.

o Sud qarorlarining barqarorligini ta‘minlash va ularni qayta ko‘rish tizimidagi murakkabliklarni bartaraf etish uchun O‘RQ-887-sonli Qonun bilan taftish instansiyasining joriy etilishi samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

3. Raqamlashtirish va ochiqlikni ta‘minlash:

o Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishni to‘liq yakunlash va ko‘plab davlat idoralari bilan elektron ma‘lumot almashinuvini to‘liq integratsiya qilish (PQ-4818-sonli qaror). Bu dalillarni to‘plash jarayonini soddalashtiradi va ish yuritishning tezkorligini oshiradi.

o Chekka hududlarda ham internet va texnik imkoniyatlarni kengaytirish orqali sud muhokamasining oshkoraligini ta‘minlash va videokonferensaloqa tizimidan foydalanishda tengsizlikni bartaraf etish lozim. Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida O‘RQ-1047-sonli Qonun bilan protsessual qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

4. Sud hujjatlarini ijro etish mexanizmini kuchaytirish:

20-May, 2026-yil

o'ljro etilmagan sud hujjati sud himoyasining samarasizligini anglatishi sababli, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash mexanizmlarini mustahkamlash.

**FOYDALANILGAN QONUN HUJJATLARI:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF- 4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora- tadbirlari to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-3050491>

2.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2023 yildagi O‘RQ-887-son "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-6708694>

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.01.2023 yildagi PF-11- son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-6358976>

4.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.07.2021 yildagi O‘RQ-703-son "Sudlar to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-5534923>

5.O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 03.07.2020 yildagi 11-son "Jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-4902524>

6.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337>

7.O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3523891>

8.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.03.2025 yildagi O‘RQ-1047-son "Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-7426957>

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.08.2025 yildagi PF- 140-son "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy- texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" <https://lex.uz/docs/-7696567>